

## BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

Guliston Davlat Universiteti  
Psixologiya va iltimoiy fanlar fakulteti  
3-bosqich talabasi  
**Rajabova Munisa Aminboy qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini turli didaktik o'yinlar orqali dars jarayonlariga qiziqtirish yuzasidan turli takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** "O'xshashlarini nomma-nom ayt", didaktik o'yin, "Tez ishla ham yanglishma" o'yini, "Zinama – zina" o'yini.

O'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, turli didaktik o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilar faoliyatida asosiy o'rinni egallaydi. Va u dunyoni va o'zligini anglashda, qiziqishlarini qondirishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yengillatish va o'yin orqali bilim berish maqsadida yaratilgan.

Ta'limiy o'yinlar maktab o'qituvchilari tomonidan ijod qilingan. Bu o'yinlar maktab o'quvchilariga mo'ljallanadi. O'yin orqali bola jamoani tushunadi. O'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'ladi. Har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi. O'yinda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Maktab bola hayotida juda muhim o'rin tutadi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi. Kecha o'yin bilan band bo'lib, erkin faoliyat ko'rsatib yurgan bolaning birdan maktabning ichki qonun-qoidalariga moslashishi, belgilangan tartib asosida mashg'ulotlarga o'z vaqtida qatnashishi oson kechmaydi. Shu tufayli kichik maktab yoshidagi bolalar o'yin bilan bog'liq darslarda juda faol qatnashadi. Biz o'qituvchilar buni hisobga olib, darslarga o'yin elementlarini kiritishimiz va undan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarda samarali foydalanishimiz lozim. Bugun maktabga ilk bor qadam qo'ygan o'quvchining kechagi mashg'uloti o'yin edi. Bolada boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan materiallarni o'zlashtirib olishga yordam beradigan epchillik, hozirjavoblik, voqealarni bir-biriga taqqoslash, sinchkovlik kabi ijobiy xislatlarning shakllanish davri bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan bilimlarning o'zlashtirib olinishiga erishish uchun ana shularga tayanish va uni parvarish qila borish lozim.

Tasavvur qiling, o'quvchi ma'lum amaliy va ruhiy tayyorgarlikdan keyin maktab o'quvchisi bo'ladi. Uning vazifasi o'zgaradi. Bir kecha- kunduzda o'rtacha 4 soat ta'lim oladi. Kechagi o'yinqaroq bola bugun 40-45 daqiqa davomida diqqatini bir joyga joylab o'qituvchi bilan muloqatda bo'ladi. O'quv axborotini qabul qiladi va idrok etadi. Ana shu vaqtda o'qituvchi loqayd, mas'uliyatsizlik qilsa, uning bu holati ota-onalarning holati bilan hamohang bo'lib qolsa, ota-ona ham yordam berishdan ojiz, nazorat qilishga "vaqti yo'q" bo'lsa, o'sha o'quvchilar bo'sh o'zlashtiruvchi, tartibsiz yomon o'quvchilarga aylanadilar. O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan fidokor o'qituvchi ana shu paytda o'quvchilarni qo'lga oladi, ularning mehrini, ishonchini qozonadi: o'quv mashg'ulotlariga qiziqish uyg'otadi.

Chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'yinlarni juda berilib bajaradi va o'zi bajarayotgan ishidan katta qoniqish hosil qiladi. Dars jarayoniga o'yin elementlarining kiritilishi bolaning kundalik hayotida orttirgan ko'nikma va malakalarining ishga tushishi natijasida bola o'zini juda yengil sezadi, erkin harakat qiladi, bir oz dam ham oladi. Ilg'or o'qituvchilar bolalarga bu xususiyatlaridan kelib chiquvchi darslarni tashkil qilib ana shu imkoniyatdan samarali foydalanadi. Natija, albatta yomon bo'lmaydi. Negaki o'quvchi qiziqish bilan ongli ravishda darslarga qatnashsa, mashqlarni bajarishga faol ishtirok etsa, berilayotgan bilimni to'la o'zlashtirib oladi.

O'yinga bir-ikki nafar bolaning faol qatnashishi bilan chegaralanib qolmaslik zarur. Unga o'quvchilarning aksariyat qismi, iloji bo'lsa hammasi faol qatnashishi kerak. Chunki o'yin bolalarni jamoatchilik ruhida tarbiyalaydi. O'yinlarni bolalar jamoa bo'lib bajarar ekan, uning barcha a'zolari faol qatnashgandagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu mashg'ulotda barcha o'quvchi bir maqsad yo'lida harakat qiladi. Hamma g'olib bo'lishga intiladi. Bunday holat har bir o'quvchining ma'suliyatini oshiradi.

Javob berayotgan o'quvchi o'z guruhining ishonchini oqlashga harakat qiladi. Noto'g'ri javob bersa, bolalar oldida o'zini noqulay sezadi, ayrim hollarda o'zini o'zi koyiydi. Keyingi o'yinlarga puxta hozirlik ko'radi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni ko'proq o'qishga chorlaydi. G'oliblik nashidasini birgalashib surishga undaydi.

### **“Qo'shningni top” o'yini**

«Qo'shningni top» o'yinida birinchi sinf o'quvchilari «O'nlik» mavzusidagi bir xonali sonlar ketma - ketligida har bir (1 va undan boshqa) sonning har ikkala qo'shnisini topish bo'yicha amaliy ishlarni bajaradilar. O'qituvchi sonlar kassasidan biror (masalan, 5) sonni olib, o'quvchilarga ko'rsatib, o'quvchilarga bu (5) sonining

o'ng va chap qo'shnisi qanday sonlardan iborat bo'lishini so'rab, ularni topib, sonlar qatoriga qo'yish kerakligini so'raydi. Bu o'yinni sinf o'quvchilarining har biri bilan alohida yoki sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lib xam o'tkazishi mumkin. Bu o'yindan ko'zlangan asosiy ta'limiy maqsad, birinchi sinf o'quvchilariga bir xonali sonlar xaqidagi tasavvurlarini mustaxkamlash va ularni o'ngdan chapga va chapdan o'ngga qarab sanash ko'nikmalarini malakaga aylantirishdan iboratdir.

#### **“Do‘konda” o‘yini**

«Do‘konda» o'yini ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularning «100 lik» ichida hisoblash ko'nikma va malakalarini mustahkamlash ta'limiy va iqtisodiy tarbiyasini amalga oshirishga mo'ljallangan didaktik o'yindir. O'yindan ko'zlangan asosiy maqsad, ikkinchi sinf o'quvchilari bilan 100 sonini tashkil etuvchilari haqida umumiy tushunchalarni aniq tanlab olingan sonlar misolida tanlash usullari bilan tanishtirishdan iborat. O'yin davomida o'quvchilar do'kondan bir nechta o'yinchoqlar sotib olishi va ularning jami bahosi 100 dan oshib ketmasligi kerak. Bu o'yinning yechimi ko'p bo'lganligi uchun ham o'yin yanada hayajonli va qiziqarli bo'ladi.

#### **“O‘xshashlarini nomma-nom ayt”**

«O'xshashlarini nomma-nom ayt», degan o'yinda to'rtinchi sinf o'quvchilari tekis geometrik figuralar ichida o'xshashlarini ajratib, ularning nomlarini aytish orqali geometrik figuralar haqidagi bilimlarning qanchalik to'g'ri va mustahkam ekanligini ko'rsatadilar. Masalan, stol ustidagi uchburchaklar, to'rtburchaklar, doiralar, yarim doira aylanalalar (yarim aylana), fazoviy figuralar va boshqa figuralar. O'quvchilar masalan, bu turtburchaklar qanday rangda va qanday kattalikda bo'lishidan qat'iy nazar, to'rtburchak, deb atalishini va ularning har biri o'z nomiga ega (kvadrat, rom, trapetsiya, parallelogramm, to'g'ri to'rtburchak), deb atalishini birgalikda topishadilar. O'yin davomida bolalarning yuzidan tabassum arimaydi va xar biri faol qatnashadi.

#### **”Tez ishla ham yanglishma”o‘yini**

”Tez ishla ham yanglishma”o'yinining maqsadi o'quvchilarda tez hisoblash malakalarini shakllantirishdan iborat. O'yinovchilar soni cheklanmaydi. O'yin uchun sinf xattaxtasi, bo'r, har bir o'ynovchiga bir varaqdan qog'oz-qalam kerak bo'ladi. O'yin boshqaruvchisi xattaxtaga o'ynovchilar ishlay oladigan misolni shoshilmasdan ravshan qilib yozadi. Masalan ;  $2+3$  ni yozib bo'lgach, taxminan 3 soniya ketma-ket 3 marta xattaxtani taqillatadi. O'ynovchilar boshqaruvchilarning oxirgi taqillatishidan kech qolmay, faqat javoblarini o'z qog'ozlariga yozib

qo'yadilar. Kimki yozishga ulgurmasa, chizib qo'yadi. Har qanday misolni shunday usulda yozadilar va yechadilar. Gaplashgan o'quvchi o'yinda yutqizgan bo'ladi.

### **“Zinama – zina” o'yini**

“Zinama – zina” o'yinida o'quvchilarga misol yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Bolalar kartochkalarni zina ko'rinishida doskaga yopishtirishadi. Misollarni javobiga qarab ikkinchi misol boshlanadi, uni keyingi zinaga shu tariqa joylash kerak bo'ladi. Bolalar shu tariqa misolli kartochkalardan zina hosil qilishadi. Darslarda o'rganiladigan bilimlarni egallashda ham o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg'ulotlarning zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bunday darslar o'quvchilarda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Pirovardida bu o'quvchilar faolligining susayishiga olib keladi. Shunday ekan, dars jarayonlari yuqoridagi singari turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Darslarda o'rganiladigan bilimlarni egallashda ham o'quvchilarning imkoniyatlari hisobga olinmay, darslarni bir xil uyushtirish mashg'ulotlarning zerikarli bo'lishiga olib keladi. Bunday darslar o'quvchilarda hech qanday qiziqish uyg'otmaydi. Pirovardida bu o'quvchilar faolligining susayishiga olib keladi. Shunday ekan, dars jarayonlari yuqoridagi singari turli didaktik o'yinlardan foydalanib o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Pedagogik texnologiya asoslari". J.G'. Yoldoshev, S.A. Usmonov. Toshkent 2004-y.
2. Azbarov Yu.T. Bolalarni sevish san'ati. T.: O'qituvchi. 1991.
3. Azizxo'jayeva N.N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. -T.: TDPU. 2000.
4. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi O'UM. 2017.
5. Ochilov, I. (2023). TARIX DARSLARIDA TAFAKKUR, KO'NIKMA VA MALAKALARNI HOSIL QILISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Наука и технология в современном мире, 2(16), 43-46
6. Ochilov, I. (2022). XALQARO TURIZM TARIXI VA RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS GEOGRAFIK JIHATLARI. Science and innovation, 1(C6), 228-231.

7.Ochilov, I. (2022). SPECIFIC GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE HISTORY AND DEVELOPMENT OF INTERNATIONAL TOURISM. Science and Innovation, 1(6), 228-231.

8.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). QADIMGI DAVRLARDAGI KO'CHMANCHI SAK, MASSAGET QABILALARI HAQIDA MUSHOHADALAR. IQRO, 2(2), 597-600.

9.Iskandar, O. (2022). XIVA TARIXI VA RIVOJLANISHIDA TURIZMNING AHAMIYATI. PEDAGOG, 5(6), 327-329.

10.Iskandar, O. (2023). The Organization of the Khorazm Soviet Republic. Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal, 2(4), 794-798.

11.Ochilov, I. (2023). IMPORTANCE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THINKING AND SKILLS IN HISTORY LESSONS. Science and innovation, 2(B4), 481-484.

12.Omongaldi o'g'li, O. I. (2022). QADIMGI XORAZM SIRLI QAL'ALARI. PEDAGOGS jurnali, 10(4), 182-185.

13.Omongaldi o'g'li, O. I. (2023). O'RTA OSIYODA TARIXIY BILIMLARNING TARAQQIYOTI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 9-15.